

**FORMATION OF THE ROLE AND PSYCHOLOGY OF YOUTH IN THE CREATION OF A
NEW ENLIGHTENED SOCIETY OF UZBEKISTAN**

Tashpulatov Abdulaziz Kuvandykovich

Student of the Pedagogical Faculty of the Shirchik State Pedagogical Institute

abdulaziztoshpolatova26@gmail.com +998943661073

ANNOTATION

This article discusses the establishment of an enlightened society in the Republic of Uzbekistan, an independent and democratic country, and the many opportunities created for young people. It also details the current state of science, technology, and the renewal of decrees and resolutions in a timely manner and their introduction to the general public.

**YANGI O'ZBEKISTON MA'RIFATLI JAMIYATNI YARATISHDA YOSHLARNING O'RNI
VA PSIXOLOGIYASINING SHAKLLANISHI.**

Toshpo'latov Abdulaziz Quvondiq o'g'li

abdulaziztoshpolatova26@gmail.com +998943661073

Chirchiq davlat pedagogika instituti pedagogika fakulteti talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada mustaqil va demokratik yurtimiz bo'lmish O'zbekiston Respublikasida ma'rifatli jamiyatni tashkil etish va unda yoshlarga yaratilgan ko'plab imkoniyatlar xususida fikr yuritiladi. Shuningdek, bugungi ilm – fan, texnika taraqqiyoti hamda farmon va qarorlarning zamonga hamnafas jarayonda yangilanishi va ularni keng jamoatchilik e'tiboriga namoyish etilishi haqida fikrlar to'liq bayon etiladi.

Kalit so'zlar: nafis, inj, pozitsiya, olimlik, fozillik, strategiya, davlat siyosati.

Ключевые слова: элегантность, инджа, позиция, наука и философия, стратегия, государственная политика.

Keywords: elegance, inj, position, science and philosophy, strategy, public policy.

Vatan tuyg'usi. Vatanga muhabbat. Bu mavzular haqida to'lib-toshib gapiramiz, ammo vatan deganda, kimning hayoliga nima keladi? Aslida, Vatan va unga bo'lgan muhabbat tuyg'usi nima?

Vatan – tabarruk maskan, ajdodlardan avlodlarga buyuk merosdir. Vatan – shu zaminda bo'y ko'rsatgan giyohdan tortib, uning daryo-yu soylari va tog'-u toshlariga, oddiy va kamtar, mehnatkash va fidoyi, mard va pahlavon odamlardan to eng mitti jonivorlargacha, o'zimiz tug'ilib, unib-o'sgan makon bilan bog'liq bo'lgan barcha narsalardir. Vatanimiz tuprog'idagi oddiy has ham, oddiy tosh ham bizga muqaddas bo'lib tuyuladigan betakror tuyg'udir. Vatanga muhabbat onaga muhabbat kabi yuksakdir.

Vatan! Butun vujudim zir titraydi bu so'z aytilgan mahal. Ajib sehr, joziba ila qalblarga jo bo'lguvchi bu ulug' kalomning na bahosi va na qiyoslanuvchi qudrati bor. Vatan-insonning kindik qoni tomgan tuproq, uni kamol toptiradigan zamin, har qarich yeri-yu kaftdek tuprog'i

zar, ko'zga gavhar bo'l mish tabarruk maskandir. Vatan-insonning g'ururi ramzi. Har kim ona Vatani timsolida dunyodagi eng go'zal va betakror yurtni, o'zining, xalqining baxtini ko'radi. Bulbul o'z tikonzorida yayrab sayraganidek, odamzod ham o'z ona tuprog'ida baxt osmonini quchadi. Vatan suvidan to giyohi qadar yot ko'zlardan himoyalanuvchi, mo'jizali maskanlari ila ko'ngillarni asir aylaguvchi muqaddas dargohdir. Vatan tuyg'usi qanchalar mukammal bo'lsa, inson shunchalar barkamol bo'laveradi. Vatanga muhabbat onaga muhabbat kabi muqaddas va yuksak tuyg'udir. Ona kabi jonga jondosh, qalbga sirdosh, ota kabi qonga qondosh bo'lguvchi kuchni aynan Vatan baxsh eta oladi. Zero, ona yanglig' mehr-u muhabbatga munosib dargohdir Vatan.

Vatan bu bizning go'zal bo'stonimiz, O'zbekistonidir. Yaratganga beedad shukronalar bo'lsinkim, kaminani O'zbekiston atalmish tinch, osoyishta, serquyosh, firdavsmonand diyorga maysa yanglig' bunyod etdi. Men Vatanimni sevaman. Yurtimizning har bir go'shasi, har tomchi suvi-yu har bir siqim tuprog'i biz uchun qadrli. Vatanimiz ne-ne insonlar orzu qilgan, ajdodlarimiz xoki singgan, nigohlarimiz tub-tubiga jo bo'lgan shukronalik tuyg'usi aks etgan mo'tabar zamindir.

Vatanga muhabbat – inson qalbida gard yuqtirmay pokiza saqlanadigan eng nafis, eng inja bir tuyg'u. Uni so'zlarda ifoda etish juda ham mushkuldir.

"Har bir davlat – betakror ijtimoiy hodisadir. U har qaysi xalq tarixiy va ma'naviy taraqqiyotining hosilidir, uning o'ziga xos, o'ziga mos madaniyati rivojining natijasidir". Bejizga, so'zimni O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov so'zlar bilan boshlamadim, chunki, haqiqatdan ham, har bir davlat takrorlanmasdir, xususan, bizning yurtimiz O'zbekiston Respublikasi ham. Yurtimizning ham boshqa davlatlarda bo'lgani kabi hozirgi boshqichga erushguniga qadar, juda katta qiyinchilik va mashaqqatlarga bardosh berdi, qiyinchiliklarni yengib o'tdi, va bugungi rivojlanayotgan davlatlar qatoridan o'rin oldi.

Bugungi kunda, O'zbekiston har jabhada, o'zining yuksak o'rinalarini egallab kelmoqda. U sport, iqtisodiy, ijtimoiy yoki siyosiy jarayonmi, mudofaami barcha barchasida o'zining sezilarli va kuchli pozitsiyasiga ega davlatlardan biriga aylanishga ulgurdi – deb aytsam, mubolag'a qilmagan bo'laman. Hozirda, yurtimizda, mustaqil O'zbekistonimizda barcha sohalar kabi ma'rifatli, ilmli insonlar jamiyatini tuzish ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zeroki, "Ilm olish har bir musulmon uchun farzdir" – deb bejiz aytilmagan hadis kitoblarda. Ma'rifatli jamiyatni yuksaltirish, olimlarni ko'paytirish jamiyat taraqqiyotida eng yuksak qadamdir. Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev ham olim, ma'rifatli insonlar xususida bejizga shunday fikr bildirib o'tmaganlar:

"Men doimo ziyoli, olim ijodkor insonlar bilan suhbatlashishga intilaman va bunday muloqotlarni hamisha sog'inaman. Nega desangiz, olimlik Olloh nurini solgan ulug' bir martaba. Bu martabadan jamiyatning butun vujudiga nur, ziyo taraladi".

Haqiqatdan ham, olimlik va fozillik yuksak martabadir. Bugungi kunda, mana shunday yuksak va mas'uliyatli martabalarni yoshlarga ishonib topshirilishi esa eng yuksak bir ishonch va shuningdek g'urur tuyg'usini tuyilishiga ham sabab bo'lmoqda. Bugungi kunda ko'plab yaratilayotgan imkoniyatlar va cheksiz ishonch, xususan, Prezidentimizning "Yangi O'zbekistonni yoshlar bilan quramiz" – degan fikrlari, yoshlarni o'z ustiga ko'proq ishslashga va mehnat qilishga da'vat etmoqda.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 41-moddasida bepul umumiy ta'lif olish huquqining yoshlar uchun kafolatlangani ham e'tiborga molikdir. Xususan moddada shunday deyiladi: "Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiy ta'lif olish davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari davlat nazoratidadir". Bu asosiy qonunimiz asosida qabul qilingan "Ta'lif to'g'risida"gi qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da ham mustahkamlab qo'yilgan. Yoshlar o'zining iqtidor va iste'dodlarini to'liq namoyon etishga haqlidirlar.

Bundan tashqari, asosiy qonunimizning 42-moddasida esa har kimga ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi, davlat jamiyatining madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishiga g'amxo'rlik qilishi ham belgilab o'tilgan. Bunga qo'shimcha tarzda, hozirda davom ettiralayotgan president maktablari, Temurbeklar maktabi, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarda yoshlarga berilayotgan zamonaviy ta'lif-tarbiya Yangi O'zbekiston rivojining mustahkam poydevori bo'lsa, oily ta'lif sohasidagi islohotlar va imkoniyatlar ustunidir.

Shu sababli ham, bu borada qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqildiki, ular yoshlar intilish va iqtidorini qo'llab-quvvatlash, rag'batlantirishga oid, rahbar kadrlarning boshqaruvalarini yuksaltirish, yangi qadam va yangi tizimni shakllantirdi. Shuningdek, zamon talablari va ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar sharoitida bugungi yoshlar talab va ehtiyojlarini o'rganilib, yangidan yangi imtiyoz va imkoniyatlar eshigi ochib berilmoqda. Yangi yoshlar siyosatini qurishda yurtboshimizning shaxsan o'zlari bosh-qosh bo'layotganlarini aytib o'tish o'rinnlidir.

Davlatimiz rahbari tomonidan yosh avlodni shakllantirishning dastlabki pallasida tarbiya masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Masalan, yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev deyarli barcha islohotlarning bardavomligini, yoshlarni qo'llab-quvvatlash siyosatida ko'rيلayotganining yaqqol tasdig'i sifatida boshlang'ich, o'rta va oily ta'lif islohotidir. Bu islohotlarning yutug'i esa bu sohadagi korrupsiyaga qarshi kurashni hamda yoshlarning davlat va qonunlarga ishonchining ortib borishi ham tabiiy jarayondir.

Xorijiy ta'lif muassasalaridan o'zimizdagi oily ta'lif, o'quv yurtlariga o'qishini ko'chirish, test jarayonlari, bir vaqtning o'zida 5 ta OTMda bilimini sinab ko'rish masalalari buning yorqin misolidir.

Bundan tashqari, bugungu kunda kadrlar huquqiy madaniyatini oshirish yo'lida ko'p yillik mehnat stajiga ega bo'lib, rahbar lavozimlarida ishlab kelayotgan yoshlar imtiyozli magistratura bosqichida o'qishga tavsiya etish borasidagi hukumat qarorlari ham diqqatga sazovordir.

Bugungi kunda, mamlakatimizdagi eng katta e'tibor mustaqil fikrlaydigan, tashabbuskor, shijoatli yoshlarni tarbiyalashga qaratilgan bo'lib, bu vazifa O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha "Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son, 2017-yil 5-iyuldagagi "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi PF-5106-son, 2018-yil 25-yanvardagi "Umumiylor'ta, o'rta maxus va kasb-hunar ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5313-son

farmonlari, shuningdek, ko'plab qaror va yoshlarga oid boshqa qonun hujjatlarida belgilab berilgan.

Ayniqsa, "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida" gi qonun amalda O'zbekistonda yoshlar huquq-manfaatlarining huquqiy kafolatlari yana-da kuchayayotganligini anglatish barobarida ertangi kunda mamlakatimiz yoshlarining yangi-yangi marralarni zabit etishga, ularning yurtimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo'shishiga zamin yaratmoqda.

Bundan keyin "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida" gi Qonun mamlakatimizda yoshlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini mustahkamlashga, yoshlarga oid davlat siyosatini ro'yobga chiqarishda davlat organlari hamda boshqa tashkilotlar mas'uliyatini kuchaytirishga, ushbu sohada sog'lom, barkamol avlodni tarbiyalashga qaratilgan choratadbirlar samaradorligini yana-da oshirishga xizmat qiladi.

"Har bir ota-onas, har bir xonadon, har bir mahalla, bugungi kunda farzandlarimiz ta'lim-tarbiyasini eng asosiy vazifa sifatida bilib, yoshlarni xalqimizga yot va yangi avlod ongi uchun zararli bo'lgan salbiy ta'sirlardan himoya qilish, millat va davlat taraqqiyotini dunyo hamjamiyatiga ko'rsatishga qodir bo'lgan yosh avlodni tarbiyalashi ham qarz, ham farzdir. Zero, inson hayoti odob-axloq, ta'lim-tarbiya bilan bevosita bog'liq". Xo'sh, unda biz vatanimiz taraqqiyotiga qanday hissa qo'shdik? Shuncha imkoniyatlarga, shart-sharoitlarga munosib javob qaytara oldikmikan? Biz yurtimiz kelajagi, uning yanada gullab-yashnashi uchun nima qila olamiz? Har bir yosh avlod bu haqida o'ylab ko'rishi lozim.

Yoshlik insonning porloq kelajagi uchun tinimsiz harakat qiladigan, o'z ifori va chiroyini yo'qotmagan bahor fasli kabitidir. Bu davrda har bir berilgan imkoniyatdan unumli foydalanib, o'zining salohiyatini oshirib borgan, jamiyatda munosib o'ren egallahsha kirishgan yoshlarning kelajagi ham go'zal bo'ladi. Agar yoshlar o'z muvaffaqiyatlari bilan yurt ravnaqiga hissa qo'shayotgan tengdoshlaridan ibrat olsalar, jamiyat taraqqiyoti uchun o'zlarining ham mas'ulligini anglab yetadilar. Yoshlarning kelajagi butun millatning shirin tashvishidir. "Yoshlikda olingan bilim toshga o'yilgan naqsh kabidir", -degan naqlga amal qilgan holda, har kim o'ziga berilgan qisqagina umri mobaynida kasb-hunar egallahsha, ulkan marralarni zabit etishga intiladi. "Ilm qayda bo'lsa, buyuklik bo'lar", - deganlaridek, ma'naviy barkamol, azm-u shijoatli va bilimdon yoshlargina yurtning ravnaq topishida mustahkam poydevordir.

Biz yoshlar esa kuchli, bilimli, jisman sog'lom, ma'nan yetuk, yuksak ma'naviyatli shaxslar bo'lib ulg'ayishimiz, siyratimizda ona xalqimiz va Vatanimizga mehr-u muhabbatni sarbaland, yurt ravnaqini ta'minlashga hissa qo'shishni sharaf deb biladigan komil inson sifatida voyaga yetmog'imiz darkor.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha beshta muhim tashabbus zamonamizning porloq kelajagi, yosh avlod uchun yuksak marralar sari yo'l ochdi. Yurtimizda jadal sur'atlar bilan amalga oshirilayotgan keng ko'lamli ishlar, islohotlarning barchasi Vatanimiz taqdiri va kelajagi uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir bo'lgan, mustaqil fikrlovchi, yuqori texnologik tafakkurga ega bo'lgan, dunyoqarashi keng, barkamol avlodni tarbiyalashdan iboratdir. Shu o'rinda Yurtboshimiz so'zlarini ta'kidlash joizki: "Ilmni qadrlang, ilmga intiling! Bir soniya vaqtingiz ham bekor o'tmasin! Yoshlik-umrning eng bebafo davri. Ilm va bilim-o'tda yonmaydigan, suvda cho'kmaydigan, hech kim sizdan tortib ololmaydigan boylik ekanini aslo unutmang!" Zero, Prezidentimizning yoshlarga bo'lgan yuksak ishonchini

to'la oqlash, cheksiz imkoniyatlardan unumli foydalanib, yurtimizga va xalqimizga munosib farzand bo'lish biz yoshlar uchun ham farz, ham qarzdir.

Moziyga nazar tashlasak, buyuk ajdodlarimiz jasorati, olamshumul yutuqlari, ilmiy kashfiyotlari, o'lmas badiiy asarlari zamirida, avvalo, xalqqa xizmat qilishdek oliyjanob maqsad mujassam ekanligini ko'ramiz. Holbuki, ajdodlarimiz biz uchun ibratdir.

Demakki, shunday ulug' ajdodlar vorislari ekanmiz, ularga munosib bo'lish, ular kabi yuksak maqsadlar sari intilib yashash, hayotda o'zimizdan yaxshi nom qoldirishga erishish barchamizning ezgu burchimizdir. Alloh marhamati va Yurtboshimiz sa'y-harakatlari ila tinch, go'zal, imkoniyatlar beshigi bo'lmish o'lkada yashayotganimizdan faxrlanamiz. Kamolot yo'lidan hamisha shijoat ila olg'a intilib, buyuk ajdodlarimiz kabi mustahkam irodali, bilimli, oqil, yuksak ma'rifatli, tashabbuskor, vatanparvar, fidoyi insonlar bo'lib yetishaylik. Zaminimizning betakrorligini asrab, yurtimiz gullab-yashnashiga munosib hissa qo'shib, ota-onalarimiz rizoligini olib, el-yurt ehtiromiga sazovor bo'lib yurishlik barchamizga nasib etsin. Xulosa qilib aytadigan bo'lsam, yurtimizda biz yoshlarga berilayotgan imkoniyatlardan to'g'ri foydalangan holda kuchli, bilimli kadrlar bo'lib yetishishimiz kerak. Bobolarimiz aytganlaridek "Ilm qayda bo'lsa, buyuklik ham o'sha yerda bo'lur". Shuning uchun, bu yurtning ravnaqi uchun, uning buyuk kelajagi uchun biz barchamiz mas'ulmiz. Biz yangi O'zbekistonning kelajagi va istiqbolining poydevorimiz, shu sababli, keling, ey asrdosh birodar, qo'lni qo'lga beraylikda, yurt ravnaqi uchun birgalikda harakat qilaylik.

O'zbekiston-kelajagi buyuk davlat. Yurtni yuksaltirish, barqarorlashtirish esa keljak avlodning qo'lida. Zero, yoshlar-mamlakat kelajagi va istiqboli-

ning poydevori. O'zbekistonning eng buyuk boyligi, bebafo xazinasi, jamiyat ertasi bo'lmish yosh avlod jahon minbarlarida bayrog'imiz sarbaland hilpira-

shi uchun hamisha kamarbasta bo'lmog'i darkor. Qalbi olov bo'lgan keljak egasi-yosh avlod ezgu orzulari va o'z oldiga qo'ygan behisob maqsadlari bilan O'zbekiston kuchiga kuch bag'ishlaydi. Vatanimiz onajonimiz kabi qadron, ko'nglimiz tojidir. Ne-ne buyuk ajdodlar kalomida bayon etilgan yurtimiz hamisha biz farzandlari uchun jonsarak ona kabi mehribon va azizdir. Shunday ekan, yurtimiz uchun barchamiz metin yurak bilan qo'rq- may orzular sari intilmog'imiz va har onni mustahkam poydevor bilan qurmoq uchun dadil odimlamog'imiz lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –Toshkent: O'zbekiston, 2017.
2. Karimov I.A. Vatan sajdah kabi muqaddasdir. 3-jild. –Toshkent: O'zbekiston, 1996, – 6-b.
3. Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 3-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2017, –166-b.
4. www.lex.uz